

## GIPERTONIYA NATIJASIDA INSULTNING KELIB CHIQISHI

Nazarov Yusuf Musurmon o'g'li

*Toshkent davlat stomatologiya instituti talabasi*

Mardonov Abdulatif Abdulkarimovich

*Toshkent davlat stomatologiya instituti talabasi*

Xazratov Abdurashid Baxodir ugli

*Toshkent davlat stomatologiya instituti talabasi*

**Annotatsiya:** *Nevrologiya terapiyaning ajralmas qismidir. UAK ko'p uchraydigan nevrologik tekshiruvlarning asosiy qonun qoidalarini bilish zarur. Nerv sistemasi kasalliklari albatta nevrologik tekshiruvlar o'tkazish orqali aniqlab olinadi. UAV murakkab va batafsil tekshiruvlar nevropotolog tomonidan o'tkaziladi. Sog'liqni saqlash tizimining birlamchi pog'onasi QVP OP faoliyatini ko'rsatuvchi umumiy amaliyot vrachi asosiy nevrologik tekshiruvlarni mustaqil ravishda o'tkazish va birlamchi xulosani bera olish kerak.*

**Kalit so'z:** *Ishimik, gemorragik, gipertoniya, diapediz, insult, patologik o'choq*

## KIRISH

1. Qisman tekshiruv; bemorda mavjud bo'lgan sindromni aniqlashga qaratilgan bo'lib qisqa muddat davom etadi va nevrologik status bemorning shikoyatlaridan kelib chiqib tekshiriladi.

2. Batafsil tekshiruv; nevrologik statusni to'la tekshiruvdan iborat. Agar qisman tekshiruv dastlabki sindromologik tashxisni quyish bilan chegaralanib qolsa batafsil tekshiruv to'la klinik tashxis quyish bilan tugallanadi.

Asosiy qism: Bosh miya qon aylanishining buzilishi shoshilinch holatning eng ko'p uchraydigan turi bo'lib u insult deb yuritiladi. Miya insulti deb miyadagi qon aylanishning tusatdan buzulishiga aytiladi. Oqibatida miya to'qimalarida o'zgarishlar yuzaga keladi va uning organik shikastlanishning turg'un simptomlari paydo bo'ladi. Insult o'z-o'zidan rivojlanmaydi. Miyaga qon quyulishining asosiy sababi xafaqon kasalligidir. Qon quyulishi diapediz yoki qon yorilishi sababli yuzaga kelishi mumkin. Qo'yilgan qon miya to'qimasini parchalaydi miya pardalarini ta'sirlantiradi. Bu esa o'choqli simptomlarni yuzaga kelishiga olib keladi. Miyadagi patologik o'choq paydo bo'lishi miya ichki bosimini oshishi es hush yo'qolishi va hayotiy muhim funksiyalar - nafas olish qon tomir sistemasi Termoregulyotsiyasining buzulishiga olib kelishi mumkin.

Bemorlar insultga bir necha kun qolganda boshi og'riydi xolsizlik, bosh aylanishini ko'z oldi qorong'lashuvini, qo'l-oyoqlari uvishini his qiladilar. Gemeparezi paydo bo'ladi. Ba'zida kasallikning kechishi bexosdan bo'lishi mumkin. Shunday qilib bosh miyada qon aylanishning buzulishi insult. Insult asosan ishimik gemoragik va aralash tipdagi insultlar farqlanadi.

Ishimik insult - miyaning ma'lum bir qismida qon aylanishining keskin pasayishi yoki bo'lmasam to'xtashi sababli yuzaga keladigan klinik sindrom. Ishimik insultning asosiy sabablari asosan arterial gipertoniya, miokard infarkt, qandli diabet, va boshqalar.

Klinkasi: Asosan tunda yoki erta saxarda sekin asta rivojlanadi. Ertalab uyg'onganda bemor tanasidagi falajlik yoki nutqi buzulishi mumkin. Ko'pincha bemor hushini

yo'qotmaydi. Kasallikda sababchi belgilar bo'lishi mumkin bu belgilar insult rivojlanishdan bir necha soat oldin paydo bo'ladi. Bosh aylanishini hushning qisqa muddat bo'lmasligi o'tib ketuvchi nutqning buzilishi hisoblanadi. Agar insult bosh miyaning o'ng yarimsharlarida ro'y bersa tananing o'ng tomonida gemeporez va nutqning buzulishlari kuzatiladi. Bosh miyaning o'ng yarimsharlari zaharlansa falajliklar va sezgi buzulishlari chap tomonda kuzatiladi. Nutq esa saqlanib qoladi. Ishimik o'lim ko'rsatkichi kam lekin miyaga qon quyilishiga nisbatan og'ir kechadi.

Gemorgik insult qon tomirlarining yorilishi yoki qonning mo'rtlashgan tomir devoridan miya to'qimalariga sizib o'tishi sababli ro'y beradi.

Klinkasi - gemorgik insult kunduz kun faol paytida rivojlanadi. Kasallik to'satdan hech qanday belgilersiz namoyon bo'ladi. Bemor birdan hushini yuqotib yiqiladi. Bemor hushini yuqotgandan keyin hech qanday ta'sirotni og'riqni sezmaydi. Bu belgilar kasallik rivojlanishidan dalolat beradi. Agar qon miya qorinchalariga quyulsa bunda kasalning axvoli juda og'ir holatda bo'ladi va tutqanoq klonik va tonik hurujlar kuzatiladi.

Davosi: Davolash tinchlik ko'zda tutiladi, nevrologik simtomatika paydo bo'lganida va yuqolgach 2-3 hafta davomida yotoq rejimiga rioya qilinadi. Bemor boshini tana qismini biroz baland ko'tarib qo'yish harakat qilishiga yo'l quymaslik kerak.

Xulosa: Asab tizimi kasalliklari orasida ko'p o'linga sabab bo'lishi yoki mexnat qobilyatini buzulishlariga olib kelishi bilan tomir patologiyasi oldingi o'rinlarni egallaydi. Rivojlangan mamlakatlarda miya tomir kasalliklaridan o'lim ko'rsatkichi yurak va o'sma kasalliklaridan so'ng 3- o'rinda turadi. Insult o'tkazgan bemorning 25% birinchi sutkada 40% 2-3 haftada yashab qolganlarning 50% 4-5 yilda hayotdan ko'z yumadi. Shu sababdan gepertoniyaga e'tibor bilan qaraylik.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zarifboy Ibodullayev „Nevrologiya“ umumiy amaliyot vrachlari uchun qo'llanma Toshkent 2017
2. Raximbayeva Gulnora Sattarovna „Nevrologiyada“ hamshiralik ishi Toshkent 2013.